

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya deb yuritiladi), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Telekommunikatsiyalar sohasida boshqaruvni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2000-yil 28-iyundagi PF-2647-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 2000-yil 30-iyundagi 253-son qaroriga asosan tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatmoqda.

Kompaniya o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va boshqa vakolatli davlat boshqaruv organlarining normativ-huquqiy hujjatlari hamda o‘z Ustaviga asosan amalga oshiradi.

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi barcha aksiyadorlariga nisbatan ularning ulushlari, daromadlar darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsi va mavqeidan qat’iy nazar teng munosabatni ta’minlaydi.

Kompaniya yuridik shaxs bo‘lib, u o‘z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o‘zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Kompaniya **tijorat tashkiloti bo‘lib**, uning asosiy maqsadi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidan foyda olish.

Kompaniyaning asosiy vazifalari quyidagilar:

- mahalliy, shaharlararo va xalqaro elektraloqa, shu jumladan ma’lumotlarni uzatish, televidenie va radio dasturlarini translyatsiya qilish xizmatlariga bo‘lgan talabni qondirish, ular turlarini kengaytirish va sifatini oshirish;

- aloqa vositalari va tarmoqlarini zamonaviylashtirish, texnik qayta jihozlash, shu jumladan to‘g‘ridan – to‘g‘ri horijiy investitsiyalarni keng jalb etish, qo‘shma korxonalar tashkil qilish, telekommunikatsiya tizimlarini tuzish va faoliyat ko‘rsatishi sohasidagi jahon yutuqlarini joriy etish asosida;

- telekommunikatsiyalar sohasida bozor islohotlarini yanada rivojlantirish, respublika axborot tizimlarini jahon telekommunikatsiyalar va axborot tarmog‘iga integratsiyalashuvini ta’minlash;

- telekommunikatsiya vositalari faoliyatining axborot xavfsizligini ta'minlash.

Kompaniya o'z faoliyatini **o'z mablag'lari va kredit mablag'lari** hisobiga amalga oshiradi.

Kompaniya **byudjet hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarning** mablag'laridan foydalanmaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonunga muvofiq Kompaniya korporativ buyurtmachi hisoblanadi hamda Kompaniyaning 2025-yilga tasdiqlangan xaridlar rejasi va biznes rejasida **davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'arma mablag'lari hisobiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilinishi rejalashtirilmagan.**